

## ONALAR VA BOLALAR O’LIMINI OLDINI OLISH

*Umarova Firusa Komilovna*

*Respublika o’rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari  
malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi  
Navoiy filiali o’qituvchisi*

*“Ona va bola sog’lig’iga e’tibor - jamiyatga, kelajakka e’tibor”*

*Shavkat Mirziyoyev*

Bugungi kunda onalar va bolalar o’limini oldini olish eng dolzarb masalalardan biridir. Qo’shimcha parvarishga muhtoj bo’lgan xavfli guruhdagi ayollarni o’z vaqtida skrining tekshiruvlaridan o’tkazish va ularga sifatli tibbiy yordam ko’rsatish avvalombor, birlamchi tizimning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayollarni sog’lomlashtirish, ayniqsa homiladorlarga sifatli patronaj tashriflarini amalga oshirish va parvarishni yaxshi yo’lga qo’yish orqali onalar hamda bolalar o’limini kamaytirishga erishamiz.

Shuni ta’kidlash joizki, aksariyat hollarda homiladorlik davridagi xavfli belgilarni kech aniqlanishi, oiladagi ijtimoiy va iqtisodiy muammolarning avj olishi, tibbiy yordamning kech ko’rsatilishi hamda sifatsizligi onalar o’limiga sabab bo’ladi. Har bir ona va bola o’limi uning oilasi hamda jamiyat uchun katta fojeadir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2024 yil 5-fevral kuni o’tkazilgan videoselektor yig’ilishda onalar va go’daklar o’limiga to’xtalib, “Har bir ona va bola o’limi “favqulodda holat” deb baholanadi va so’rov shunga yarasha bo’ladi”,— dedi. Onalik va bolalikni muhofaza qilish davlatimizda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning ustuvor yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz tashabbusi bilan birlamchi bo’g’inda 8500 nafar patronaj doyasi shtati joriy etilib, ularni tibbiy brigada tarkibiga kiritilishi homilador ayollarni skrining tekshiruvlariga yo’naltirish, tibbiy nazorat qilish, sog’lom farzandlar dunyoga kelishi, chaqaloqlarni sog’lom parvarishlash borasida ijobiy natijalar uchun asos bo’lmoqda.

Keyingi bosqich esa ushbu mutaxassislarini tayyorlash, ularni kerakli bilim va ko’nikmalar bilan boyitishga qaratildi. Xususan, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazida “Sog’lom oilani shakllantirish” mavzusida o’quv dasturlari shakllantirilib, malaka oshirish kurslari tashkil qilindi. Bu jarayonga xorijlik professor-o’qituvchilar jalb etilgani mashg’ulotlar samaradorligini yanada oshirishga xizmat qildi. 46 nafar tajribali pedagog uchun chet ellik ekspertlar tomonidan maxsus mashg’ulotlar o’tkazildi. O’qishni muvaffaqiyatli tugatganlarga “Xalqaro standartlar

asosida tayyorlangan mahalliy trener” sertifikatini berilib, ular, o‘z navbatida, joylarda boshqa doyalarni o‘qitishni davom ettirdi.

O‘qitishdan maqsad, tibbiy brigada doyasining mavjud bilim va salohiyatini takomillashtirish, kasbiy faoliyatida yangi bilim va ko‘nikmalarini xalqaro talablarga mos ravishda egallashi, tug‘ish yoshidagi ayollarda turli kasalliklarni oldini olish, mahallalarda tashkil etilgan “Sog‘lom oila” xonalarida aholiga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish, o‘zining kasbiy intilishlarini rivojlantirishdan iborat.

Respublika o‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Navoiy filialida “Sog‘lom oilani shakllantirish” 756 soat dasturi asosida patronaj doyalarni o‘qitish 2024 yil fevral oyidan boshlandi. Avgust oyida nazariy dars va mustaqil amaliyotni o‘tagan tinglovchilar yakuniy nazorat topshirdilar hamda imtihondan muvaffaqiyatli o‘tganlarga 756 soatli “Sog‘lom oilani shakllantirish” sertifikatini berildi. Bundan tashqari, 2024 yil 18 martdan 2-aprel kuniga qadar “Sog‘lom oilani shakllantirish” mavzusi bo‘yicha 72 soatga mo‘ljallangan mavzuli malaka oshirish sikli bo‘yicha mahalliy trenerlarni tayyorlash maqsadida 18 nafar patronaj doya va 7 nafar o‘qituvchilar o‘qitildi hamda “Sog‘lom oilani shakllantirish” mavzusida 72 soatli sertifikat berildi. O‘qitish jarayonlari asosida tibbiy brigada doylarimizning bilim saviyasi oshirilib, amaliy ko‘nikmalari shakllantirildi. Mahalliy trener doya va o‘qituvchilarimiz tumanlarda mustaqil amaliyotini ish jarayonida davom ettirayotgan doylarning kundalik daftarlari, “Sog‘lom oila” xonalarining tashkil etilishi hamda aholisidagi ayollarga ko‘rsatayotgan tibbiy yordam sifatini nazorat qilib bordilar. Tibbiy brigada doylarining o‘qitilganligi tug‘ish yoshidagi ayollarni sog‘lomlashtirish, homilador ayollarni kechiktirmasdan nazoratga olish, ularda kelib chiqishi mumkin bo‘lgan asoratlarni oldini olish, ayniqsa onalar hamda bolalar o‘limini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Ayni paytda doylar tomonidan farzand ko‘rishga mutlaq yoki nisbiy moneligi bo‘lgan va homiladorligi asorat bilan kechayotgan ayollarimiz birlamchi tizimdagi “Ayollar maslahatxonasi”da chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, kundalik reja asosida ularni sog‘lomlashtirish choralari ko‘rilmogda.

Har bir doya o‘zining “Muvaffaqiyatlar arxivi”ni yaratayapti, ya’ni uning ko‘magi bilan salomatligi yaxshilangan, hatto o‘limdan saqlab qolingani ayollar haqida batafsil yozib boradi. Shuningdek, uyma-uy yurgan holda “Muammoli homiladorlar ro‘yxati” shakllantirilib, shifokorlar yordamida bunday ayollar salomatligi tiklanmogda. Ularning faoliyati natijasida yil boshidan beri 32 ming nafardan ortiq ahvoli og‘ir bo‘lgan ayollar aniqlanib, doimiy parvarish evaziga holati yaxshilanishiga erishildi.

Bir so‘z bilan aytganda, tibbiy brigada tarkibida patronaj doya faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi mamlakatimizda onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilishga

xizmat qilmoqda. So‘nggi besh yil davomida amalga oshirilayotgan ishlar va o‘tkazilgan tadbirlar natijasida onalar va go‘daklar o‘limining kamayishiga erishildi.

Shunday qilib, Yurtboshimiz ta’biri bilan aytganda “Ona va bola sog‘lom bo‘lsa, oila baxtli, oila baxtli bo‘lsa, jamiyat mustahkam bo‘ladi” degan hayotbaxsh g‘oya har bir yurtdoshimizning qalbiga chuqur kirib borishi, ana shu ulug‘ ishga munosib hissa qo‘shish barchamizning muqaddas vazifamizga aylanishi lozim”.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Birlamchi tizimda onalar va bolalar bilan ishlash bo‘yicha patronaj hamshiralar ishini tashkil etish”. O‘quv qo‘llanma 2020 yil.
2. “Onalar va bolalarda xavf omillarini aniqlash bo‘yicha yo‘riqnomalar va beriladigan tavsiyalar”. Uslubiy ko‘rsatmalar 2020 yil.
3. “Salomatlik” gazetasi 18-son, 2024 yil 13 sentyabr.
4. “Hamshira” jurnali 2024 yil noyabr.
5. “Birlamchi tibbiy-sanitariya tizimi tibbiyot brigadasining doyasi” O‘quv qo‘llanma. Navoiy, 2023 yil.